

Farzandim – mening boyligim

Har bir ota-onaning yolg'iz dardi farzandlarini avaylab, parvarishlab voyaga yetkazishdir, lekin bu borada faqat ota-onaning harakati yetarli bo'lmaydi. Bolalarni yomon do'stlardan, atrofidagi yomon illatli muhit ta'siridan himoyalash, nafaqat himoyalash bu yomonliklardan saqlanishi uchun bolalarimizda immunitet hosil qilishimiz kerak.

Ota-onaning o'z g'ayratlari bilan bolani tarbiyalashlari qiyin, chunki farzand tarbiyani faqat ota-onasidan olmaydi. Shu bois uning tarbiyasida bilib-bilmay ishtirok etadigan, yaxshi muhitga bolani olib kirish, yaxshi odamlar bilan qo'shni bo'lish ham juda zarur.

Qiyomat kuni ota-ona farzandiga o'rgatishi kerak bo'lgan ilmlardan mas'ul bo'ladi. Vazifasini bajarmagan yoki kamchilikka yo'l qo'ygan bo'lsa jazolanadi. Farzandlarini islom tarbiyasi bilan yetishtirmaganlar dunyo va ohiyat falokatlariga duchor bo'ladi.

Yosh bir tadqiqotchining shaxsan o'zi tadbiiq qilgan bola tarbiyasiga tegishli xususiyatlarni keltirib o'tamiz.

Bolaga dard, g'am-tashvishingizni aytmang, quvonch va xursandchiligimizni aytishimiz mumkin.

Ularni oldida doimo ochiq chehrali bo'lishga harakat qiling. Kayfiyatsiz bo'lsak, bola bundan darrov ta'sirlanadi.

Xato va kamchiliklarini tan olishni o'rgating. Kamchiligini bilib, Qaytalamaslikka urinishi bolaning hayotida muvaffaqiyatli bo'lishiga olib keladi.

Yana hakimzodlardan biri aytadi: "Ayollarning jamiyat oldidagi eng buyuk xizmati har taraflama barkamol va yetuk farzandlarni taqdim qilmoqlikdir". Chunki farzandlar ko'proq vaqtlarini onani yonida o'tkazadilar. Ilmli va soliha onalarimiz ko'paversin.

Kenjayeva Z.